TBC Bank

Ishlatilgan avtomobillar uchun avtokredit

Umumiy shartlar

Mahsulot turi	Bank hamkorlari bo‘lgan dilerlardan ishlatilgan avtomobillarni sotib olish uchun avtokredit
Valyuta	O‘zbekiston so‘mi (UZS)
Avtomobil bozori	Ikkilamchi bozor, ya’ni ishlatilgan avtomobillar
Kreditni qaytarish usuli	Annuitet, ya’ni har oy bir xil miqdorda to‘lov qilish * Annuitet — bu kreditning asosiy qarzi va foizlarini teng miqdordagi davriy to‘lovlar bilan qaytarish usuli.
Kreditning eng yuqori miqdori	1 000 000 000 so‘m Kredit berish va uning miqdori bo‘yicha qaror mahsulotning risk siyosati asosida qabul qilinadi.
Kredit muddati	48 oygacha bo‘ladi

Avtomobil rusumlari

Kredit olish mumkin bo‘lgan avtomobillar	Bankning hamkor dilerlari sotayotgan ishlatilgan avtomobillar. Kredit bo‘yicha cheklovlar tanlangan tarif shartlari va bank qaroriga bog‘liq bo‘ladi
Avtosalonlar	Hamkor avtosalonlar ro‘yxatini bankning rasmiy saytidagi “Avtosalonlar xaritasi” bo‘limidan ko‘rish mumkin
Kredit shartlari	Foiz stavkalari va boshlang‘ich to‘lov miqdori tariflarda ko‘rsatiladi. Agar avtomobilning qaysidir rusumi yoki modeli uchun alohida dastur bo‘lmasa, bank qarz oluvchi bilan shartnoma tuzilishidan oldin kredit shartlarini o‘z xohishiga ko‘ra belgilashi mumkin

Qarz oluvchiga qo‘yiladigan talablar

Fuqaroligi	O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi
Yoshi	Kredit beriladigan kuni yosh 18 dan 65 gacha bo‘lishi kerak
Bandligi	Rasmiy ishlaydiganlar, o‘zini o‘zi band qilganlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar
Daromadi	Rasmiy daromad yoki bank kartasidagi tranzaksiyalar, hisobvaraq ko‘chirmasi, bank qabul qiladigan boshqa ma’lumotlar bilan tasdiqlangan norasmiy daromad bo‘lishi kerak
Qarz yuki koeffitsiyenti (QYK)	Qarz oluvchining barcha amaldagi kredit to‘lovlarini hisobga olganda, oylik kredit to‘lovlari uning o‘rtacha oylik daromadining 50 foizidan oshmasligi kerak. Istisno: 2025-yil 18-dekabrdagi 3618-1-sonli nizomga muvofiq, bank jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning umumiy hajmidagi ulushi 15 foizdan oshmagan miqdorda QYKni hisobga olmasdan ham kredit berishi mumkin.

Kreditning garov qiymatiga nisbati (LTV)	75 foizdan oshmasligi kerak. Istisno: 2025-yil 18-dekabrdagi 3618-1-sonli nizomga muvofiq, umumiy hajmi bankning avtokredit portfelining 15 foizidan oshmaydigan kreditlar uchun LTV koʻrsatkichini belgilangan chegaradan yuqori belgilashga ruxsat beriladi
Birgalikda qarz oluvchi	Bank oʻz xohishiga koʻra yana bitta jismoniy shaxsni birgalikda qarz oluvchi sifatida jalb qilishga ruxsat berishi mumkin

Ta’minot va sugʻurta

Garov	Sotib olinayotgan ishlatilgan avtomobil
KASKO sugʻurtasi (tarif shartlariga qarab)	Tarifga qarab, KASKO butun kredit muddati davomida yoki uning bir qismi uchun rasmiylashtirilishi yoki umuman talab qilinmasligi mumkin. Agar KASKO polisi boʻlsa, sugʻurta puli oluvchi Bank hisoblanadi
Sugʻurta toʻlovi	Tarifda sugʻurta koʻzda tutilgan boʻlsa, uning pulini qarz oluvchi toʻlaydi

Kerakli hujjatlar

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat	Pasport, ID karta yoki shaxsni tasdiqlaydigan boshqa hujjat
Oldi-sotdi shartnomasi	Bankning hamkor dileri bilan tuzilgan ishlatilgan avtomobil oldi-sotdi shartnomasi
Daromadni tasdiqlovchi hujjat	Kerakli hujjatlar roʻyxatini bank qarz oluvchining toifasi va daromad manbaiga qarab belgilaydi
Qoʻshimcha hujjatlar	Bank oʻz xohishiga koʻra qoʻshimcha hujjatlarni ham soʻrashi mumkin

Xizmat koʻrsatish shartlari

Kreditni muddatidan oldin qaytarish	Kreditni toʻliq yoki qisman muddatidan oldin qaytarish uchun jarima, komissiya yoki boshqa qoʻshimcha toʻlov olinmaydi
Arizani koʻrib chiqish muddati	Barcha kerakli hujjatlar topshirilgan kundan boshlab 1 ish kunida koʻrib chiqiladi
Kechiktirilgan toʻlovlar uchun javobgarlik	Kreditning asosiy qarzi vaqtida toʻlanmasa, kechiktirilgan summaga har kun uchun 0,1% penya hisoblanadi. Foizlar vaqtida toʻlanmasa, kechiktirilgan foizlar summasiga har kun uchun 1% penya hisoblanadi. Bunda penya miqdori kechiktirilgan foizlarning 50 foizidan oshmaydi. Har bir kechiktirilgan toʻlov holati uchun bir martalik 100 000 soʻm jarima undiriladi.
Hujjatlarni taqdim etmaslik uchun javobgarlik	Mashina koʻzdan kechirish uchun taqdim etilmasa, garov qiymatining 1 foizi miqdorida jarima solinadi. Mashina yoʻqolgan taqdirda uning oʻrniga yangi garov taqdim etilmasa, garov qiymatidan har kun uchun 0,1% penya hisoblanadi. Mashina YHXBda roʻyxatdan oʻtkazilmasa, 16-kalendar kundan boshlab texnik pasport taqdim etilguniga qadar asosiy qarz summasidan har kun uchun 0,1% penya undiriladi
	Ishlatilgan avtomobillar uchun kredit shartlari bankning tarif hujjatlarida e’lon qilinadi. Qaysi kredit dasturi qo‘llanishi esa bitim shartlari va bank qaroriga bog‘liq.

Ishlatilgan avtomobillar uchun avtokredit stavkalari

Jismoniy shaxslar uchun. Dilerlik markazlaridagi ishlatilgan avtomobillarga beriladi.

Avtomobil brendi**	Kredit dasturi	Foiz stavkasi
Chevrolet	Ishlatilgan avtomobil uchun avtokredit	26,5%
Haval	Ishlatilgan avtomobil uchun avtokredit	27,5%
Chery	Ishlatilgan avtomobil uchun avtokredit	27,5%
BYD	Ishlatilgan avtomobil uchun avtokredit	27,5%
Boshqa brendlar*	Bank qaroriga bog'liq	Individual

*Alohida kredit dasturi bo'lmagan avtomobil brendlari uchun bank shartnomani tuzishdan oldin mos tarifni o'zi tanlashi mumkin. Kreditning aniq shartlari qarz oluvchiga shartnomani imzolashdan oldin ma'lum qilinadi.